

“TEZKOR” SUG'URTA MAHSULOTI BO'YIHA KORXONA VA TASHKILOTLAR XODIMLARI (AHOLI)NI BAXTSIZ HODISALARDAN HAMDA ULARGA TEGISHLI BO'LGAN MOL-MULKNI KOMPLEKS SUG'URTALASH OMMAVIY OFERTA

Ushbu Ommaviy Oferta (keyingi o'rinlarda “Oferta” deb yuritiladi) “MY-INSURANCE” Aksiyadorlik Jamiyati Sug'urta Tashkiloti tomonidan Korxonalar va tashkilotlar xodimlari (Aholi)ni baxtsiz hodisalardan hamda ularga tegishli bo'lgan mol-mulkni kompleks sug'urtalash xavflari “TEZKOR” sug'urta mahsuloti bo'yicha, Ofertada ko'rsatigan shartlarda Sug'urtalovchi ning rasmiy veb-sayti yoki Internet xizmati (avtomatlashtirilgan axborot tizimi, mobil ilovasi) orqali sug'urtalash shartnomasini tuzish bo'yicha yo'naltirilgan taklifdir.

Ushbu Oferta sug'urta polisini rasmiylashtirish sanasida amalda bo'lgan “TEZKOR” sug'urta mahsuloti bo'yicha Korxonalar va tashkilotlar xodimlari (Aholi)ni baxtsiz hodisalardan hamda ularga tegishli bo'lgan mol-mulkni kompleks sug'urtalash Qoidalarini (keyingi o'rinlarda “sug'urta Qoidalarini” deb yuritiladi) bilan tartibga solinadi. Sug'urta Qoidalarini va ushbu Oferta <https://myinsurance.uz> rasmiy veb-saytida va Sug'urtalovchi ning Internet xizmatlarida mavjud.

Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish va belgilangan sug'urta mukofotini to'lash, uning shartlarini akseptlash va Sug'urta qildiruvchining “TEZKOR” mahsuloti uchun sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlangach, unga “TEZKOR” elektron sug'urta polisi yuboriladi va sug'urta shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasini Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq, ushbu Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilish (aksept qilish) ommaviy Oferta shartlarini qabul qilish hisoblanadi va bu quyidagilarga:

- ushbu Oferta shartlari, shu jumladan unda ko'rsatilgan sug'urta shartlari bilan roziligini;
- sug'urta polisini shakllantirish uchun taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga, shu jumladan tizimlashtirish, saqlash, foydalanish, taqdim etish, tarqatishga, 5 yil muddatga sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmagan holda ishlov berish yo'li bilan uzatishga, shuningdek, ichki hujjat aylanishini ta'minlash bo'yicha sug'urta shartlariga ko'ra o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarish uchun ularni uchinchi shaxslarga o'tkazishga roziligini ifodalaydi.

Agar sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan bo'lsa, shuningdek, Sug'urtalovchi tomonidan akseptni bekor qilish to'g'risidagi bildirishnoma akseptga qadar yoki u bilan bir vaqtda olingan bo'lsa, aksept olinmagan hisoblanadi.

“Sug'urta shartnomasi” va “Sug'urta polisi” atamalarini bundan keyin matnda ushbu elektron hujjatga nisbatan bir xil ma'noga ega.

KORXONA VA TASHKILOTLAR XODIMLARI (AHOLI)NI BAXTSIZ HODISALARDAN HAMDA ULARGA TEGISHLI BO'LGAN MOL-MULKNI KOMPLEKS SUG'URTALASH – “TEZKOR” SUG'URTA LOYIHASI QOIDALARI, MUHIM SHARTLARI, OMMAVIY OFERTA SHARTLARI ASOSIDA TUZILGAN

1. Mazkur Qoidalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda “MY INSURANCE” AJ STning 1-klass “Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash Qoidalarini”, 9-klass “Mulk sug'urtasi Qoidalarini” hamda 3-klass “Er usti transport vositalari va unga aloqador xavflarni sug'urta qilish Qoidalarini” asosida ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasidagi Korxonalar va tashkilotlar xodimlari (Aholi)ni (keyingi o'rinlarda “Sug'urta qildiruvchi” deb nomlanadi) yuqorida keltirib o'tilgan sug'urta turlari bo'yicha ularning mulkiy manfaatlarini sug'urta qilish tartibi va shartlarini belgilab beradi.

2. **Qoidalar maqsadi:** Sug'urta qildiruvchiga va/yoki Sug'urtalangan shaxsga baxtsiz hodisa natijasida sog'lig'iga va/yoki hayotiga hamda ularga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk va er usti transport vositalariga (uning qismlariga) etkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan mazkur Qoidalarda belgilangan xavflardan sug'urta qilish.

3. **Sug'urta obyektini** bo'lib, Sug'urta polisining amal qilishi davrida baxtsiz hodisa natijasida Sug'urtalangan shaxsning sog'lig'iga va/yoki hayotiga, hamda Sug'urta qildiruvchining ko'chmas mulkiga va yer usti transport vositasiga (uning qismlariga) belgilangan qaltisliklar oqibatida yetkazilgan zararining Sug'urtalovchi tomonidan to'lab berilishi bilan bog'liq mulkiy manfaatlarini hisoblanadi.

4. **Sug'urta subyektlari** bo'lib, Sug'urtalovchi hamda sug'urta polisi Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi sifatida ko'rsatilgan shaxslar hisoblanadi.

5. Ushbu Qoidalarda quyidagi atamalar qo'llaniladi:

Sug'urtalovchi – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi litsenziyasi asosida faoliyat yurituvchi «MY INSURANCE» AJ ST.

Sug'urta qildiruvchi – Sug'urtalovchi bilan sug'urta polisini tuzgan va u bo'yicha sug'urta mukofotini to'lagan jismoniy shaxs.

Sug'urtalangan shaxs – Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi o'rtasida tuzilgan sug'urta polisi asosida mulkiy manfaatlarini himoyalangan jismoniy shaxs.

Sug'urta hodisasi – to'satdan, oldindan anglanmagan va insonlarning hohishsiz yuz bergan, Sug'urtalangan shaxsning sug'urta muddati mobaynida jarohatlanishi yoki o'limiga olib kelgan hamda ko'chmas mulk va/yoki transport vositasiga zarar keltiruvchi baxtsiz hodisa.

Sug'urta polisi – sug'urta mukofoti to'langanidan so'ng, Sug'urtalovchi bilan Sug'urta qildiruvchining kelishuviga binoan hamda uning sug'urta summasi doirasidagi javobgarligini tasdiqlovchi hujjat.

Sug'urta summasi – Sug'urtalovchi sug'urta polisi bo'yicha Sug'urta qildiruvchi oldidagi majburiyatlarini qoplashi uchun pul summasining eng yuqori hajmi.

Sug'urta mukofoti – Sug'urta qildiruvchi sug'urta polisiga muvofiq Sug'urtalovchi (uning agenti)ga to'lashi shart bo'lgan sug'urta uchun haq (badal).

Sug'urta tovonni – sug'urta polisida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun Sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan pul mablag'lari summasi.

Naf oluvchi – sug'urta polisi uning foydasiga tuzilgan shaxs. Agar sug'urta polisida boshqa shaxs foydasiga tuzilganligi ko'rsatilmagan bo'lsa, sug'urta polisi Sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Sug'urtalangan shaxsning o'limi holatida esa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan uning merosxo'ri foydasiga tuzilgan hisoblanadi.

Sug'urta qoplamasi hududi – butun dunyo.

Sug'urta javobgarligi vaqti – tun-u kun.

Sug'urta javobgarligi davri – Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha javobgarligi sug'urta mukofoti to'langan sanadan uch kundun keyingi kunning 00.00 soatidan e'tiboran kuchga kiradi hamda bir yil (365 kun) davomida ushbu sug'urta qoidalariga ko'ra birinchi yuz bergan sug'urta hodisasi yuzasidan to'lov amalga oshirilgunga qadar amalda hisoblanadi. Ya'ni sug'urta qoplamasi sug'urta polisining amal qilish davri (bir yil)da faqat bir marta amalga oshiriladi.

6. Sug'urtalash tartibi va jarayoni:

6.1. Sug'urtalash Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'laganidan so'ng Sug'urtalovchining rasmiy sayti yoki uning sug'urta agenti tomonidan elektron sug'urta polisini berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

6.2. Sug'urta qildiruvchi polis muddatidan ilgari voz kechgan taqdirda, Sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi.

7. Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.

7.1. Sug'urta hodisalari bo'lib, quyidagi hodisalar:

Sug'urtalangan shaxsning yiqilishi yoki uning ustiga biror-bir predmetni tushishi;
kutilmagan bo'g'ilish, nafas olish yo'llariga tasodifan yot jismlarning tushishi, viruslarning tushishi bundan mustasno;

zararli mahsulotlar yoki moddalar oqibatida jiddiy zaharlanish (zararli o'simliklar, kimyoviy moddalar, dori-darmonlar, sifatsiz oziq-ovqatlar);

qo'l-oyoqlar yoki umurtqaning keskin jismoniy zo'riqishi tufayli mushak (muskul), pay, paycha yoki tomirning qisman yoki butunlay cho'zilishi;

kuyish, sovuq urishi, cho'kish, elektr toki urishi;

uchinchi shaxslarning tajovuzi va/yoki hayvonlarning hamla qilishi;

tabiiy ofatlar sababli Sug'urtalangan shaxsning sog'lig'iga zarar etishi natijasida,

- **Sug'urtalangan shaxsning vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi;**

- **Sug'urtalangan shaxsga 1 yoki 2 guruh nogironligi belgilanishi;**

- **Sug'urtalangan shaxsning vafoti** yuz berishi hisoblanadi.

7.2. Sug'urta summasi va mukofoti:

- mazkur sug'urta turi bo'yicha bitta sug'urta polisi uchun **20 000 000** (yigirma million) so'mdan kam bo'lmagan miqdorda sug'urta summasi belgilanadi;

- sug'urta mukofoti sug'urta summasining **0,50** foizini - **100 000** (yuz ming) so'mdan kam bo'lmagan miqdorni tashkil etib, bir yillik sug'urta davri uchun to'lov hisoblanadi.

7.3. Istisnolar.

Ushbu Qoidalarga ko'ra, quyidagi holatlar Sug'urta hodisasi deb hisoblanmaydi va javobgarlik olib borilmaydi:

- Sug'urtalangan shaxsning qasddan jinoyat sodir etishi natijasida tan jarohat olishi yoki vafot etishi;

- Sug'urtalangan shaxsning sug'urta hodisasi hisoblanmagan holat natijasidagi vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi, nogironligi yoki vafot etishi;

- o'zining biror a'zosini qasddan jarohatlashi;

- o'z-o'zini o'ldirishga suyoqasd qilishi;

- VICH-infeksiyalanish, narkotik va psixotrop moddalarini iste'moli tufayli kasallanishlar va o'limi;

- fuqarolik va harbiy to'ntarishlarda, xalq qo'zg'olonlarida qatnashishi natijasidagi hodisalar;

- homiladorlik, tug'ish va tug'ruqdan keyingi bola parvarishi tufayli mehnatga layoqatsizligi;

- bemor oila a'zosi, kasal (nogiron) va sog'lom bolani parvarishlash tufayli vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi;

- sanatoriya-kurortda davolanish uchun kasallik varaqsini ochtirish.

7.4. Sug'urta tovonini to'lash tartibi va shartlari:

7.4.1. Sug'urta tovonini Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urtalangan shaxsga yoki uning merosxo'riga Sug'urta mukofoti Sug'urta polisida belgilangan miqdorda va shartlarda to'langan taqdirda to'lab beriladi.

7.4.2. Sug'urta hodisasi yuz berganda, sug'urta tovonini olish uchun Sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlar taqdim etilishi kerak:

- o'rnatilgan shakldagi ariza;
- sug'urta polisi (asli);
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;
- baxtsiz hodisa yuz bergan vaqtdan e'tiboran 3 (uch) ish kuni ichida berilgan, shuningdek sug'urta hodisasining sanasini tasdiqlovchi tibbiy hujjatlar (kasallik varaqasining nusxasi, davolanishning davomiyligi haqida ma'lumotnoma, TMEK xulosasining nusxasi, o'lim to'g'risidagi guvohnoma nusxasi);
- zarurat bo'lganda, Naf oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat va meros huquqining kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat.

7.4.3. Sug'urta hodisasi natijasida Sug'urta tovonini o'rnatilgan sug'urta summasiga nisbatan quyidagi foiz miqdorlarida to'lab beriladi:

- Sug'urtalangan shaxs vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz bo'lib qolsa, sug'urta summasining **5 foizi**;
- Sug'urtalangan shaxsga nogironlik belgilansa:
 - a) I guruh uchun sug'urta summasidan – **75 foiz**;
 - b) II guruh uchun sug'urta summasidan – **50 foiz**;
- Sug'urtalangan shaxsning o'limi yuz berganda sug'urta summasining **100 foizi**.

7.4.4. Sug'urtalangan shaxsga sug'urta tovonini ularning mehnatga layoqatsizligi, nogironligi yoki o'limi sug'urta hodisasi yuz bergan kundan e'tiboran bir yil davomida yuz bersa va to'g'ridan-to'g'ri sug'urta hodisasining oqibati hisoblansagina to'lab beriladi.

7.4.5. Sug'urtalangan shaxsning o'limidan so'ng Naf oluvchi unga tegishli sug'urta tovonini olishga ulgurmay turib, vafot etsa, u holda Sug'urtalangan shaxsning o'limi holati bo'yicha sug'urta tovonini ushbu Naf oluvchining merosxo'rlariga to'lab beriladi.

8. Mol-mulkni sug'urta qilish (avtotransport vositalaridan tashqari)

8.1. Sug'urta hodisalari:

- **yong'in** (olov ta'sirida, gaz portlashi, yashin urishi, yonuvchi mahsulotlar yetkazgan zarar, yong'inni o'chirish tadbirlaridan ko'rilgan zarar);
- **suv toshishi** (santexnika tizimlarning yorilishi, qo'shni xona (binolar)dan);
- **mexanik shikastlanish** (transport vositalarining kelib urilishi, uchuvchi apparatlar va ular qismlarining kelib tushishi, daraxtlar, ustunlar, narsalarning qulashi);
- **uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari** (buzg'unchilik, o'g'irlik, bosqinchilik, talonchilik, bezorilik);
- **tabiiy ofatlar** (zilzila, yer o'pirilishi, ko'chki, dovul, bo'ron, to'fon, vulqon otilishi, suv toshqini, shiddatli atmosferaviy yog'ingarchilik).

8.2. Sug'urta summasi va mukofoti:

- mazkur sug'urta turi bo'yicha bitta sug'urta polisi uchun **25 000 000** (yigirma besh million) so'mdan kam bo'lmagan miqdorda sug'urta summasi belgilanadi;
- sug'urta mukofoti sug'urta summasining **0,40** foizini - **100 000** (yuz ming) so'mdan kam bo'lmagan miqdorni tashkil etib, bir yillik sug'urta davri uchun to'lov hisoblanadi.

8.3. Istisnolar:

- Ushbu Qoidalarga ko'ra, quyidagi holatlar Sug'urta hodisasi deb hisoblanmaydi va javobgarlik olib borilmaydi:
- yadroviy portlash, radiasiya yoki radioaktiv zaharlanish;
 - harbiy harakatlar va boshqa harbiy tadbirlar;
 - fuqarolik urushlari, turli ko'rinishdagi xalq qo'zg'olonlari yoki ish tashlashlar;
 - davlat organlari qaroriga ko'ra mol-mulkni buzish, musodara qilish, konfiskatsiya qilish, rekvizitsiya qilish, hisobga olish yoki yo'q qilish;
 - Sug'urta qildiruvchining hamda oila a'zolarining qasddan qilingan harakatlari;
 - Sug'urta qildiruvchining toksik, narkotik yoki alkogol moddalar ta'sirida mast holatdagi harakatlari (harakatsizligi);
 - mulkning chirishi, korroziyasi va uning boshqa tabiiy xususiyatlarini o'zgarishi;
 - Sug'urta qildiruvchi uy-joyi (kvartira)da portlovchi moddalar va portlash xavfi bo'lgan moslamalarni tayyorlash, saqlash, ulardan foydalanish, kimyoviy va fizikaviy tajribalarni o'tkazish;
 - tabiiy ofat, yer osti yoki o'rmon yong'ini natijasida, agarda Sug'urta polisi sug'urta obyektini joylashgan hududning mahalliy maxsus vakolatli organ (FVV, IIV, Gidrometeorologik xizmat va boshqa)lari tomonidan tabiiy ofatlar, yer osti va o'rmon yong'inlari yuz berishi xavfi mavjudligi haqida xabar berilganidan so'ng tuzilgan bo'lsa;
 - boshqa sug'urta hodisalarini keltirib chiqarmagan holda, elektr tokining qisqa tutashuvi vujudga kelishi natijasida elektr uskunalari detallari va tizimlariga zarar etishi;
 - sug'urta Shartnomasini tuzish vaqtida mavjud bo'lgan mol-mulkdagi nuqsonlar tufayli.

8.4. Sug'urta tovonini to'lash tartibi va shartlari:

8.4.1. Sug'urta qildiruvchi hodisa yuz berganda, bu haqda zudlik bilan maxsus vakolatli organlarga ma'lum qilishi va 72 soat ichida (dam olish va bayram kunlarini hisobga olmagan holda) har qanday maqbul yo'l bilan (telefon, telegram orqali) Sug'urtalovchiga xabar berish lozim. Xabar bergan kundan boshlab, 30 (o'ttiz) ish kundan kechiktirmagan holda hodisa yuz berganligi haqidagi yozma ariza va Sug'urtalovchi tomonidan talab qilingan zarar faktini tasdiqlash, sababi va miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etish lozim.

8.4.2. Sug'urta tovonini olish uchun o'rnatilgan shakldagi ariza quyidagi hujjatlar ilova qilingan holda taqdim etiladi:

- sug'urta polisi;
- shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport) nusxasi;
- sug'urtalangan mulkka bo'lgan egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;
- mustaqil baholovchi tashkilotning zarar miqdori bahosi haqidagi dalolatnomasi (ma'lumoti);
- vakolatli organlarning (Gidrometeorologik xizmat, FVV, IIV, tergov organlari, sud va boshqa maxsus vakolatli organlarning qarori) sug'urta hodisasi to'g'risidagi hujjatlari.

8.4.3. Sug'urtalangan mulkka etkazilgan zarar miqdori mustaqil baholovchi tomonidan aniqlanadi. Sug'urta tovonini sug'urta polisida belgilangan sug'urta summasi doirasida to'lanadi. Bu miqdor tomonlar o'rtasida o'zaro kelishilgan holda ham belgilanishi mumkin.

9. Transport vositasini sug'urta qilish.

9.1. Sug'urta hodisalari:

- **zararlanish** – yo'l-transport hodisasi (amaldagi yo'l harakati qoidalarida ta'riflanishiga muvofiq), yong'in, portlash, transport vositasiga predmetlarning tushib ketishi, tabiiy ofatlar, uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari;

- **olib qochish** (amaldagi yo'l harakati qoidalarida ta'riflanishiga muvofiq).

9.2. Sug'urta summasi va mukofoti:

- mazkur sug'urta turi bo'yicha bitta sug'urta polisi uchun **30 000 000** (o'ttiz million) so'mdan kam bo'lmagan miqdorda sug'urta summasi belgilanadi;

- sug'urta mukofoti sug'urta summasining **1,0** foizini – **300 000** (uch yuz ming) so'mdan kam bo'lmagan miqdorni tashkil etib, bir yillik sug'urta davri uchun to'lov hisoblanadi.

9.3. Istisnolar:

Ushbu Qoidalarga ko'ra, quyidagi holatlar Sug'urta hodisasi deb hisoblanmaydi va javobgarlik olib borilmaydi:

- transport vositasini zaruriy hujjatlarga ega bo'lmagan shaxs tomonidan boshqarilishi;
- transport vositasini alkogol, narkotik yoki toksik moddalar yoxud ta'qiqlangan dori-darmonlarni qabul qilish ta'sirida mast holatda bo'lgan shaxs yoki yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan darajadagi charchoqlik va betoblik holatida bo'lgan shaxs tomonidan boshqarilishi, shuningdek, sug'urtalangan transport vositasi haydovchisining YTH joyidan yashirinishi yoki tibbiy tekshiruv (ekspertiza)dan o'tishdan bosh tortishi;
- Sug'urta qildiruvchi yoki uning ishonchli vakili tomonidan sug'urta tovonini olish maqsadida berilgan ma'lumotlar yolg'onligini aniqlanishi;
- boshqa sug'urta hodisalarini keltirib chiqarmagan holda shinalarning shikastlanishi, elektr tokining qisqa tutashuvi vujudga kelishi natijasida elektr uskunalari detallari va tizimlariga zarar etishi;
- transport vositasini ro'yxatga olish belgilarining, shuningdek transportni ishlab chiqaruvchi-zavod tomonidan o'rnatilmagan va/yoki qo'shimcha uskunalarning sifatida sug'urtalanmagan uskunalarining o'g'irlanishi, shikastlanishi;
- sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug'urtalangan transport vositasining ichida bo'lgan mol-mulkka zarar etishi.

9.4. Sug'urta tovonini to'lash tartibi va shartlari:

9.4.1. Sug'urta qildiruvchi yuz bergan hodisaning xususiyatidan kelib chiqib zudlik bilan maxsus vakolatli organlarga ma'lum qilishi va 72 soat ichida (dam olish va bayram kunlarini hisobga olmagan holda) har qanday maqbul yo'l bilan (telefon, faks orqali) Sug'urtalovchiga xabar berishi lozim. Xabar bergan kundan boshlab 10 (o'n) ish kundan kechiktirmagan holda etkazilgan zarar haqida yozma ariza va zaruriy hujjatlarni taqdim etishi lozim;

9.4.2. Sug'urtalovchining vakillari tomonidan shikastlangan transport vositasini ko'zdan kechirish (monitoring) uchun shart-sharoitlar yaratib berish lozim.

9.4.3. Sug'urta tovonini olish uchun o'rnatilgan shakldagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- sug'urta polisi;
- shaxsni tasdiqlovchi xujjat (pasport) nusxalari;
- sug'urtalangan mulkka bo'lgan egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;
- YTH vaqtida transport vositasini boshqargan shaxsning haydovchilik guvohnomasi va transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnomaning nusxasi;
- YTH vaqtida transport vositasini boshqargan shaxsning hushyorligi to'g'risida tibbiy tekshiruv xulosasi;
- zarar miqdori to'g'risidagi baholovchi hisoboti yoki ustaxona kalkulyasiyasi;
- zarurat bo'lganda yuz bergan hodisaning xususiyatidan kelib chiqib, belgilangan shakldagi sug'urta hodisasining yuz berganlik shart-sharoitlarini tasdiqlovchi, maxsus vakolatli organlar (DYHXX, IIV, FVV, Hidrometeorologik xizmat, sud va boshqalar) qarori.

Sug'urtalovchi polisning amal qilish vaqtida bir marotaba, agar ushbu polis bo'yicha sug'urta tovonini to'lanmagan bo'lsa, sug'urta summasining 10 foizigacha bo'lgan miqdordagi zararlarni maxsus vakolatli organlarning qarorlarisiz qoplab berish huquqiga ega.

10. Umumiy shartlar.

10.1. Hisoblangan sug'urta mukofoti bir yo'la to'lanadi. Shuningdek, bir korxon va tashkilot xodimlari soni 20 tadan ziyod bo'lgan taqdirda oyma-oy (10 oy muddatda) grafik asosida teng miqdorlarda bo'lib-bo'lib to'lanishi mumkin. Bunda oylik to'lov har oyning 15-sanasiga qadar to'lanishi kerak.

10.2. Sug'urta mukofotini korxon va tashkilotning 20 yoki undan ko'p bo'lgan xodimlari bo'lib to'lash orqali amalga oshirganda Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lgunga qadar, Sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta mukofotining faqatgina ma'lum bir qismini to'lagan bo'lsa, sug'urta tovonini quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- agar Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'lash grafigi muddatini buzmagani bo'lsa, u holda Sug'urtalovchi sug'urta tovonini sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda to'lanmagan sug'urta mukofotini chegirgan holda amalga oshiradi.

- agar Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'lash grafigi muddatini buzgan bo'lsa, u holda Sug'urtalovchi sug'urta tovonini sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug'urta summasining miqdorini sug'urta mukofotining to'langan qismiga mutanosib ravishda cheklaydi.

10.2. Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lovi bo'yicha qarorini qabul qilishi uchun Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs, Naf oluvchi) va o'zgalardan boshqa zaruriy hujjatlarni belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

10.3. Sug'urta tovonini Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs yoki Naf oluvchi)ning bank hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan barcha zaruriy hujjatlar olingandan so'ng, sug'urta dalolatnomasi tasdiqlangan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kuni davomida to'lab beriladi. Hodisa yuzasidan jinoyiy ish ochilgan holat bundan mustasno.

10.5. Shartnoma bo'yicha sug'urta tovonini Sug'urtalovchi tomonidan Tomonlar bilan kelishilgan holda, Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs yoki Naf oluvchi)ning bank plastik kartasiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

10.6. Sug'urta tovonini Sug'urtalovchi tomonidan, qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnomaga ko'ra Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs yoki Naf oluvchi)ning vakiliga to'lab berilishi mumkin.

10.7. Sug'urta qildiruvchi, sug'urta davri mobaynida sug'urtalangan mol-mulk (jumladan TV)ga tegishli ma'lumotlar o'zgartirgan taqdirda, Sug'urtalovchiga 3 (uch) ish kunida xabar berishi shart va shu asosda Sug'urta qildiruvchiga sug'urta polisi qayta rasmiylashtirib beriladi.

10.8. Agar Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) zarar etkazilganligi uchun javobgar shaxslardan pul mablag'i olgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta qilish shartlari bo'yicha, javobgar shaxsdan olingan pul mablag'i va haqiqiy zarar o'rtasidagi farqni sug'urta summasi doirasida to'lab beradi. Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bundan mustasno.

10.9. Agar amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan da'vo muddati davomida Qonun yoki ushbu polis bo'yicha Sug'urta qildiruvchini to'liq yoki qisman tovon olish huquqidan mahrum qiluvchi holatlar aniqlansa, Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasining ro'y berishi natijasida polis bo'yicha olgan sug'urta tovonini Sug'urtalovchiga qaytarib berishga majbur. Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bundan mustasno.

Filiallarning manzillari, telefonlari va ish vaqti Sug'urtalovchining rasmiy veb-saytida ko'rsatilgan.

Manzil: 100015, Toshkent sh., Kichik Mirobod ko'chasi, 95

Bank nomi: O'ZR TIF "MILLIY BANK" SAYOHAT FILIALI

Bank kodi: 00450

Bank h/r.: 20208000104786066001

XXTUT: 96220

STIR: 207002342

Rasmiy internet sayti: <https://myinsurance.uz>

Elektron pochta: info@myinsurance.uz

ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА ПО КОМПЛЕКСНОМУ СТРАХОВАНИЮ СОТРУДНИКОВ ПРЕДПРИЯТИЙ И ОРГАНИЗАЦИЙ (НАСЕЛЕНИЯ) ОТ НЕСЧАСТНЫХ СЛУЧАЕВ И ПРИНАДЛЕЖАЩЕГО ИМ ИМУЩЕСТВА ПО СТРАХОВОМУ ПРОДУКТУ "TEZKOR"

Данная Публичная оферта (далее по тексту — «Оферта») является предложением Акционерного общества страховой организации "MY-INSURANCE" заключить договор страхования на условиях, изложенных в Оферте, в отношении комплексного страхования сотрудников предприятий и организаций (населения) от несчастных случаев и принадлежащего им имущества по страховому продукту «TEZKOR» посредством официального веб-сайта Страховщика или через интернет-сервис (автоматизированную информационную систему, мобильное приложение).

Настоящая Оферта регулируется Правилами комплексного страхования сотрудников предприятий и организаций (населения) от несчастных случаев и принадлежащего им имущества по страховому продукту «TEZKOR», действующими на дату оформления страхового полиса (далее по тексту — «Правила страхования»). Правила страхования и данная Оферта размещены на официальном сайте <https://myinsurance.uz> и доступны через интернет-сервисы Страховщика.

Акцепт условий настоящей Оферты и уплата установленного страхового взноса признаются согласием с её условиями и намерением заключить договор страхования по продукту «TEZKOR». После подтверждения факта оплаты страхового взноса Страхователем, ему высылается электронный страховой полис «TEZKOR», и договор страхования считается заключённым.

В соответствии со статьёй 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан, безоговорочный акцепт условий данной Оферты признаётся принятием условий публичной оферты и означает следующее:

- согласие со всеми условиями настоящей Оферты, включая изложенные в ней условия страхования;
- согласие на обработку персональных данных, предоставленных для оформления страхового полиса, в том числе на их систематизацию, хранение, использование, предоставление, распространение, передачу на срок до 5 лет в целях осуществления страховой деятельности как с использованием автоматизированных средств, так и без них, а также на передачу этих данных третьим лицам в целях исполнения обязательств по договору страхования, включая обеспечение внутреннего документооборота.

В случае неполной оплаты страхового взноса, а также при получении уведомления от Страховщика об отзыве акцепта до его получения или одновременно с ним, акцепт считается не состоявшимся.

Термины «договор страхования» и «страховой полис» в дальнейшем по тексту означают один и тот же электронный документ.

ПРАВИЛА, ОСНОВНЫЕ УСЛОВИЯ И УСЛОВИЯ ПУБЛИЧНОЙ ОФЕРТЫ КОМПЛЕКСНОГО СТРАХОВАНИЯ СОТРУДНИКОВ ПРЕДПРИЯТИЙ И ОРГАНИЗАЦИЙ (НАСЕЛЕНИЯ) ОТ НЕСЧАСТНЫХ СЛУЧАЕВ И ПРИНАДЛЕЖАЩЕГО ИМ ИМУЩЕСТВА ПО СТРАХОВОМУ ПРОЕКТУ "TEZKOR"

1. Настоящие Правила разработаны в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан, а также на основании Правил по страхованию от несчастных случаев 1-го класса, Правил имущественного страхования 9-го класса и Правил страхования наземных транспортных средств и связанных с ними рисков 3-го класса АО страховой организации «MY INSURANCE». Они определяют порядок и условия страхования имущественных интересов сотрудников предприятий и организаций (населения) Республики Узбекистан (далее — «Страхователь») по вышеуказанным видам страхования.

2. Цель Правил — страхование Страхователя и/или Застрахованного лица от ущерба, который может быть причинён их здоровью и/или жизни, а также недвижимому имуществу и наземным транспортным средствам (или их частям) в результате несчастного случая в пределах рисков, определённых настоящими Правилами.

3. Объектом страхования являются имущественные интересы, связанные с возмещением вреда, причинённого здоровью и/или жизни Застрахованного лица, а также ущерба, причинённого недвижимому имуществу и наземному транспортному средству (или его частям) Страхователя в результате наступления страхового случая в период действия страхового полиса.

4. Субъектами страхования являются Страховщик, а также лица, указанные в страховом полисе как Страхователь и Выгодоприобретатель.

5. В настоящих Правилах используются следующие термины:

• **Страховщик** — АО «MY INSURANCE», осуществляющее деятельность на основании лицензии Министерства финансов Республики Узбекистан.

• **Страхователь** — физическое лицо, заключившее страховой полис со Страховщиком и уплатившее страховую премию.

• **Застрахованное лицо** — физическое лицо, имущественные интересы которого застрахованы в соответствии со страховым полисом, заключённым между Страховщиком и Страхователем.

• **Страховой случай** — внезапное, непредвиденное и не зависящее от воли людей событие, произошедшее в период действия страхования, повлёкшее травму или смерть Застрахованного лица, а также нанесшее ущерб недвижимому имуществу и/или транспортному средству.

• **Страховой полис** — документ, подтверждающий ответственность Страховщика в пределах страховой суммы, выданный по соглашению между Страховщиком и Страхователем после уплаты страховой премии.

• **Страховая сумма** — максимальный размер денежного обязательства Страховщика перед Страхователем по страховому полису.

• **Страховая премия** — страховой взнос, который Страхователь обязан уплатить Страховщику (или его агенту) согласно условиям страхового полиса.

• **Страховое возмещение** — сумма, выплачиваемая Страховщиком в связи с наступлением страхового случая, предусмотренного в полисе.

• **Выгодоприобретатель** — лицо, в пользу которого заключён страховой полис. Если в страховом полисе не указано иное, он считается заключённым в пользу Застрахованного лица. В случае смерти Застрахованного лица, выгодоприобретателем считается его наследник согласно действующему законодательству Республики Узбекистан.

• **Территория страхового покрытия** — весь мир.

• **Время действия ответственности Страховщика** — круглосуточно.

• **Период ответственности Страховщика** — ответственность Страховщика по выплате страхового возмещения вступает в силу с 00:00 часов третьего дня после уплаты страховой премии и действует в течение одного года (365 дней) либо до первой выплаты по первому наступившему страховому случаю, whichever comes first. То есть страховое покрытие по данному полису осуществляется однократно в течение срока его действия (одного года).

6. Порядок и процесс страхования:

6.1. Страхование оформляется после уплаты страховой премии Страхователем путём выдачи электронного страхового полиса через официальный сайт Страховщика или через его страхового агента.

6.2. В случае досрочного отказа от полиса со стороны Страхователя, уплаченная страховая премия Страховщиком не возвращается.

7. Страхование от несчастных случаев

7.1. Страховыми случаями признаются следующие события:

- падение застрахованного лица или падение на него какого-либо предмета;
- внезапное удушье, случайное попадание инородных тел в дыхательные пути (за исключением вирусов);
- серьёзные отравления вследствие воздействия вредных продуктов или веществ (ядовитые растения, химикаты, медикаменты, некачественные продукты питания);
- частичное или полное растяжение мышц, сухожилий или связок из-за резкого физического перенапряжения рук, ног или позвоночника;
- ожоги, обморожения, утопление, поражение электрическим током;
- нападение третьих лиц и/или животных;
- нанесение вреда здоровью застрахованного лица вследствие стихийных бедствий, в результате чего наступают:
 - временная нетрудоспособность застрахованного лица;
 - установление 1 или 2 группы инвалидности;
 - смерть застрахованного лица.

7.2. Страховая сумма и страховая премия:

- минимальная страховая сумма по одному страховому полису по данному виду страхования составляет 20 000 000 (двадцать миллионов) сумов;
- страховая премия составляет 0,50% от страховой суммы, но не менее 100 000 (сто тысяч) сумов, и уплачивается за один страховой год.

7.3. Исключения.

В соответствии с настоящими Правилами не признаются страховыми случаями и не подлежат возмещению следующие обстоятельства:

- получение телесных повреждений или смерть застрахованного лица в результате совершения им умышленного преступления;
- временная нетрудоспособность, инвалидность или смерть застрахованного лица, не являющиеся результатом страхового случая;
- умышленное причинение себе увечья;
- попытка самоубийства;
- заражение ВИЧ, заболевания и смерть в результате употребления наркотических и психотропных веществ;
- участие в гражданских и военных переворотах, народных восстаниях;
- нетрудоспособность по причине беременности, родов и послеродового ухода за ребёнком;
- временная нетрудоспособность из-за ухода за больным членом семьи, инвалидом или здоровым ребёнком;
- открытие больничного листа для санаторно-курортного лечения.

7.4. Порядок и условия выплаты страхового возмещения:

7.4.1. Страховое возмещение выплачивается Страховщиком застрахованному лицу либо его наследнику в случае, если страховая премия уплачена в размере и на условиях, указанных в страховом полисе.

7.4.2. Для получения страхового возмещения при наступлении страхового случая необходимо предоставить Страховщику следующие документы:

- заявление установленного образца;
- оригинал страхового полиса;
- копия документа, удостоверяющего личность;
- медицинские документы, выданные в течение 3 (трёх) рабочих дней с момента происшествия и подтверждающие дату наступления страхового случая (копия больничного листа, справка о длительности лечения, копия заключения ВКК, копия свидетельства о смерти);
- при необходимости — документ, удостоверяющий личность Выгодоприобретателя, и документ, подтверждающий вступление в права наследства.

7.4.3. В случае наступления страхового случая страховое возмещение выплачивается в следующих размерах от установленной страховой суммы:

- 5% — при временной нетрудоспособности застрахованного лица;
- при установлении инвалидности:
 - I группа — 75%;
 - II группа — 50%;
- 100% — при смерти застрахованного лица.

7.4.4. Страховое возмещение выплачивается, если временная нетрудоспособность, инвалидность или смерть застрахованного лица наступили в течение одного года с момента страхового случая и имеют прямую причинно-следственную связь с ним.

7.4.5. В случае смерти Выгодоприобретателя до получения причитающегося ему страхового возмещения, выплата по смерти застрахованного лица осуществляется наследникам Выгодоприобретателя.

8. Страхование имущества (за исключением автотранспортных средств)

8.1. Страховыми случаями признаются:

- пожар (ущерб, причинённый открытым огнём, взрывом газа, ударом молнии, возгоранием горючих материалов, а также ущерб, возникший при тушении пожара);
- затопление (вследствие прорыва сантехнических систем, затопления из соседних помещений (зданий));
- механические повреждения (наезд транспортных средств, падение летательных аппаратов или их частей, деревьев, столбов, различных предметов);
- противоправные действия третьих лиц (вандализм, кража, разбой, грабёж, хулиганство);
- стихийные бедствия (землетрясение, оползень, обвал, ураган, буря, наводнение, извержение вулкана, ливни и другие интенсивные атмосферные осадки).

8.2. Страховая сумма и страховая премия:

- минимальная страховая сумма по одному страховому полису составляет 25 000 000 (двадцать пять миллионов) сумов;
- страховая премия составляет 0,40% от страховой суммы, но не менее 100 000 (сто тысяч) сумов за один страховой год.

8.3. Исключения:

В соответствии с настоящими Правилами не признаются страховыми случаями и не подлежат возмещению следующие обстоятельства:

- ядерный взрыв, радиация или радиоактивное заражение;
- военные действия и другие военные мероприятия;
- гражданские войны, всевозможные народные восстания или забастовки;
- разрушение, конфискация, реквизиция, изъятие, учёт или уничтожение имущества по решению государственных органов;
- умышленные действия Страхователя или членов его семьи;
- действия (бездействие) Страхователя в состоянии опьянения под воздействием токсических, наркотических или алкогольных веществ;
- гниение, коррозия или иные естественные изменения свойств имущества;
- хранение, использование или изготовление взрывоопасных веществ, проведение химических и физических экспериментов в квартире (жилище) Страхователя;
- случаи, произошедшие в результате стихийных бедствий, подземных или лесных пожаров, если страховой полис был оформлен после официального уведомления от местных уполномоченных органов (МЧС, МВД, Гидрометслужба и др.) о наличии риска подобных явлений в данном районе;
- повреждение деталей и систем электрического оборудования из-за короткого замыкания без возникновения других страховых событий;
- ущерб, вызванный дефектами, существовавшими в имуществе на момент заключения Договора страхования.

8.4. Порядок и условия выплаты страхового возмещения:

8.4.1. В случае наступления страхового случая Страхователь обязан немедленно сообщить об этом в уполномоченные органы и в течение 72 часов (за исключением выходных и праздничных дней) уведомить Страховщика любым удобным способом (по телефону, телеграммой). Не позднее чем через 30 (тридцать) рабочих дней с момента уведомления необходимо предоставить письменное заявление о наступлении страхового случая и иные документы, необходимые для подтверждения факта ущерба, его причины и размера.

8.4.2. Для получения страхового возмещения заявление установленного образца подаётся вместе со следующими документами:

- страховой полис;
- копия документа, удостоверяющего личность (паспорта);
- документы, подтверждающие право собственности на застрахованное имущество;
- акт (справка) независимой оценочной организации о размере ущерба;
- документы уполномоченных органов (Гидрометслужбы, МЧС, МВД, следственных органов, суда и других) о страховом случае.

8.4.3. Размер ущерба застрахованному имуществу определяется независимым оценщиком. Страховое возмещение выплачивается в пределах страховой суммы, указанной в страховом полисе. Эта сумма может быть определена также по взаимной договорённости сторон.

9. Страхование транспортного средства

9.1. Страховые случаи:

- повреждение — дорожно-транспортное происшествие (в соответствии с действующими правилами дорожного движения), пожар, взрыв, падение предметов на транспортное средство, стихийные бедствия, противоправные действия третьих лиц;
- угон (в соответствии с определением, установленным действующими правилами дорожного движения).

9.2. Страховая сумма и премия:

- по данному виду страхования страховая сумма по одному страховому полису устанавливается не менее 30 000 000 (тридцати миллионов) сумов;
- страховая премия составляет 1,0% от страховой суммы, но не менее 300 000 (трёхсот тысяч) сумов, и рассчитывается за один год страхового периода.

9.3. Исключения:

В соответствии с настоящими Правилами не считаются страховыми случаями и не подлежат ответственности следующие обстоятельства:

- управление транспортным средством лицом, не имеющим необходимых документов;
- управление транспортным средством лицом, находящимся в состоянии алкогольного, наркотического, токсического опьянения либо под воздействием запрещённых лекарственных препаратов, в состоянии усталости или недомогания, представляющем угрозу для безопасности дорожного

движения; также — если водитель застрахованного транспортного средства скрылся с места ДТП или отказался пройти медицинское освидетельствование;

- установление недостоверности сведений, предоставленных Страхователем или его доверенным лицом с целью получения страховой выплаты;
- повреждение шин, либо повреждение деталей и систем электрооборудования вследствие короткого замыкания, если не было иных страховых событий;
- кража или повреждение регистрационных знаков транспортного средства, а также оборудования, не установленного заводом-изготовителем и/или не застрахованного как дополнительное;
- повреждение имущества, находящегося внутри застрахованного транспортного средства на момент страхового случая.

9.4. Порядок и условия выплаты страхового возмещения:

9.4.1. Страхователь в зависимости от характера происшествия обязан незамедлительно сообщить об этом в компетентные органы и в течение 72 часов (не считая выходных и праздничных дней) уведомить Страховщика любым приемлемым способом (по телефону, факсу и др.). С даты уведомления в течение не более 10 (десяти) рабочих дней необходимо подать письменное заявление о возмещении ущерба и все необходимые документы.

9.4.2. Необходимо обеспечить условия для осмотра (мониторинга) повреждённого транспортного средства представителями Страховщика.

9.4.3. К заявлению установленной формы на получение страхового возмещения прилагаются следующие документы:

- страховой полис;
- копия документа, удостоверяющего личность (паспорт);
- документы, подтверждающие право собственности на застрахованное имущество;
- копии водительского удостоверения лица, управлявшего ТС на момент ДТП, и доверенности на право управления;
- медицинское заключение о трезвости водителя на момент ДТП;
- отчёт оценщика или калькуляция мастерской о размере ущерба;
- при необходимости — решение компетентных органов (ГАИ, МВД, МЧС, гидрометеослужба, суд и др.), подтверждающее обстоятельства страхового случая.

Страховщик имеет право один раз в период действия полиса, если по нему ещё не выплачивалось возмещение, возместить ущерб в размере до 10% от страховой суммы без решения компетентных органов.

10. Общие условия

10.1. Начисленная страховая премия выплачивается единовременно. Однако, если в организации или предприятии численность сотрудников превышает 20 человек, допускается поэтапная оплата равными долями по графику в течение 10 месяцев. В этом случае ежемесячный платёж должен быть произведён до 15 числа каждого месяца.

10.2. Если страховая премия уплачивается в рассрочку организацией/предприятием с численностью сотрудников 20 и более, и на момент наступления страхового случая оплачена только часть премии, то страховое возмещение выплачивается следующим образом:

- если график платежей не нарушен — выплата осуществляется за вычетом неоплаченной части страховой премии;
- если график платежей нарушен — выплата ограничивается суммой, пропорциональной уже уплаченной части страховой премии от страховой суммы.

10.3. Страховщик имеет право требовать от Страхователя (Застрахованного лица, Выгодоприобретателя) и других лиц необходимые документы, установленные порядком, для принятия решения по выплате страхового возмещения.

10.4. Страховое возмещение перечисляется на банковский счёт Страхователя (Застрахованного лица или Выгодоприобретателя) в течение 5 (пяти) рабочих дней с даты утверждения страхового акта и получения всех необходимых документов. Исключение — случаи, по которым возбуждено уголовное дело.

10.5. По согласованию Сторон выплата может быть осуществлена путём перевода на банковскую карту Страхователя (Застрахованного лица или Выгодоприобретателя).

10.6. Выплата может быть произведена доверенному лицу на основании нотариально заверенной доверенности, оформленной в установленном законодательством порядке.

10.7. В случае изменения информации, касающейся застрахованного имущества (включая транспортные средства), в течение срока страхования Страхователь обязан уведомить об этом Страховщика в течение 3 (трёх) рабочих дней. На этом основании полис переоформляется.

10.8. Если Страхователь (Выгодоприобретатель) получил денежные средства от лица, виновного в причинении ущерба, то Страховщик выплачивает разницу между фактическим ущербом и полученной суммой в пределах страховой суммы. Это не применяется к страхованию от несчастных случаев.

10.9. Если в течение установленного законом срока исковой давности выявляются обстоятельства, в результате которых Страхователь лишается полного или частичного права на получение страхового возмещения по закону или по условиям настоящего полиса, то он обязан вернуть Страховщику выплаченное возмещение. Это не относится к страхованию от несчастных случаев.

Адреса, телефоны и режим работы филиалов указаны на официальном сайте Страховщика.

Реквизиты Страховщика:

Полное наименование:

Акционерное общество Страховая Компания «MY-INSURANCE»

Адрес: 100015, г. Тошкент, улица «Kichik Mirobod», 95

Банк: АО Национальный банк Республики Узбекистан ЦБУ «Саёхат»

МФО: 00450

Банк р/с.: 2020 8000 1047 8606 6001

ОКЕД: 96220

ИНН: 207002342

Официальный интернет - сайт: <https://myinsurance.uz>

Электронная почта: info@myinsurance.uz